



Methods of using modern pedagogical technologies and innovative methods in teaching the subject “Management of research projects based on SMM” in secondary schools

Gulbakhor TEMIROVA¹, Nodira YUSUPOVA²

Andijan State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received August 2023

Received in revised form

15 September 2023

Accepted 25 September 2023

Available online

15 October 2023

Keywords:

pedagogical technology,
education,
social network,
educational method.

ABSTRACT

In this article, the authors present a methodological system for using ICT in the educational process, in particular, “Managing research projects based on SMM and creating a channel on the YouTube website,” based on modern ICT tools.

2181-1415/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss8/S-pp309-316>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “smm asosida tadqiqot loyihalarini boshqarish” mavzusini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion usullardan foydalanish uslubiyoti

ANNOTATSIYA

Kalit so‘zlar:

pedagogik texnologiya,
ta’lim,
ijtimoiy tarmoq,
ta’lim metodi

Mazkur maqolada mualliflar tomonidan AKTni zamonaviy ta’lim texnologiyalari bilan integratsiyalashgan holda o‘quv jarayonida qo‘llash, xususan, “SMM asosida tadqiqot loyihalarini boshqarish, YouTube saytida kanal ochish” mavzusini zamonaviy AKT vositalari asosida tashkil etish metodik tizim sifatida ishlab chiqilgan.

¹ Senior Teacher, Department of Information Technologies, Andijan State University.
E-mail: maxfuza_artiqova@mail.ru

² Senior Teacher, Department of Information Technologies, Andijan State University.
E-mail: nodiraxon.yusupova@gmail.com

Методы использования современных педагогических технологий и инновационных методов при преподавании предмета «Управление исследовательскими проектами на основе SMM» в общеобразовательных школах

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

педагогическая технология, образование, социальная сеть, метод обучения.

В данной статье авторами представлена методическая система использования ИКТ в образовательном процессе, в частности, "Управление исследовательскими проектами на основе SMM и создание канала на сайте YouTube", основанная на современных инструментах ИКТ.

KIRISH. Respublikamizda iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda olib borilayotgan izchil siyosat natijasidagi rivojlanish ta'lim tizimida ham o'qitishning yangi shakllarni joriy etishni taqozo etmoqda. Shu sababli, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida ta'lim tizimini yuqori darajada tashkil etish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, har bir mamlakatning dunyodagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy mavqeini, uning iqtisodiy o'sishda asosiy omili bo'lib borayotgan intellektual boyligi ta'minlamoqda. Bu borada mamlakatimizda qator tadbirlar amalga oshirilmoqda hamda ta'limning nazariy, huquqiy bazasini rivojlantirishda o'z ifodasini topmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni asosida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" asosida qator reja va loyihalar ilgari surilmoqda. Xususan, umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun yangi avlod darsliklarini yaratish va bunday darsliklarni jahon standartlariga moslashtirish konsepsiyalari ishlab chiqildi. Konsepsiya asosida "Informatika va axborot texnologiyalari" fanini o'qitishning quyidagi yangi asosiy vazifalari belgilab berildi:

- "Informatika va axborot texnologiyalari" fanini o'qitishning zamonaviy shakl, metod va texnologiyalarini qo'llash;
- o'quvchilar masofadan turib yangi bilimlarni egallashi, doimiy ravishda o'z ustida ishlashi uchun tizim yaratish va uni yo'lga qo'yish;
- ta'lim jarayonida tayanch bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni doimiy nazorat qilib turish, o'quvchilar qobiliyatiga qarab kasbiy yo'naltirish ishlarini olib borish.

Bugungi ta'lim tizimi eski mazmundagi o'quv dasturlaridan voz kechib, innovatsion raqamli iqtisodiyot va axborotli jamiyat uchun kadrlar tayyorlash imkoniyatini beradigan o'qitish tizimiga o'tmoqda. Shunga mos ravishda, ta'lim berishga yondashuvlar ham o'zgarib, internet va axborot texnologiyalari imkoniyatlari tufayli o'qituvchilar oddiy bilim beruvchidan asosiy tashkilotchiga aylanmoqdalar.

Internet tarmog'ining rivojlanishi hamda uning jamiyat hayotida muhim o'rin egallashi bugungi kunda jahon miqyosida keng ommalashgan ijtimoiy tarmoqlarning paydo bo'lishiga zamin yaratdi. Dunyo aholisining aksariyat qismi, shu jumladan, yoshlar

o‘z media mahsulotlari hamda biznes loyihalarini ijtimoiy media marketing orqali reklama qilib, daromad manbaiga ega bo‘lmoqdalar[8].

Jamiyat rivojining yangi shart-sharoitlari axborotlashgan jamiyat talablariga javob beruvchi zamonaviy o‘qitish texnologiyalaridan foydalanib, yangi mutaxassislarni tayyorlashni vazifa qilib qo‘ymoqda. Axborot texnologiyalarini hayotimizning turli jabhalariga keng va jadal kirib borishi axborotlashgan jamiyatni shakllantirishga zamin yaratmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan me‘yoriy hujjatlar asosida bajarilayotgan ishlar ta‘lim islohotlarini izchil ravishda amalga oshirilishi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Ushbu qabul qilingan huquqiy–me‘yoriy hujjatlar ta‘limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion texnologiyalarni joriy etish va rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mantiqiy davomi bo‘lib, fan va texnika sohalariga komputer va axborot texnologiyalarini keng joriy etish, aholining turli qatlamlari uchun zamonaviy komputer va axborotlar tizimidan foydalanish imkoniyatini yaratish, maktablar, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va oliy o‘quv yurtlaridagi o‘quv jarayoniga zamonaviy komputer texnologiyasini faol qo‘llashga asoslangan o‘qitishning progressiv tizimini kiritish, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash borasidagi ustuvor vazifalarni belgilab beradi.

Respublikamizdagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar ta‘lim tizimini, ta‘lim-tarbiya metodologiyasi va texnologiyalarini tubdan yangilash zaruratini keltirib chiqardi. Bu esa o‘z navbatida yosh avlodga ta‘lim berish maqsadi, o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro bog‘liq faoliyatiga yangiliklarni kiritishni talab etmoqda. Pedagoglarning innovatsion faoliyatga yo‘naltirilganligi ta‘lim siyosatini yangilash asosini tashkil etadi. Shu bilan birga ta‘lim sohasidagi o‘zgarishlar jamiyat rivojiga o‘z ta‘sirini o‘tkazmay qolmaydi. Ta‘lim jarayonini takomillashtirishning yetuk mutaxassislarni tayyorlash, barkamol shaxsni shakllantirishga qaratilganligi ijtimoiy munosabatlarni rivojlantiradi va takomillashtiradi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). “SMM asosida tadqiqot loyihalarini boshqarish. YouTube saytida kanal ochish.” mavzusini zamonaviy AKT vositalari asosida metodik tizim sifatida ishlab chiqishni ko‘rib chiqamiz.

“SMM asosida tadqiqot loyihalarini boshqarish. YouTube saytida kanal ochish”

Dars bosqichlari	Vaqt
Tashkiliy qism	2 daqiqa
Takrorlash	2 daqiqa
Motivatsiya	3 daqiqa
Mavzuni tushuntirish	15 daqiqa
Mavzuni mustahkamlash	15 daqiqa
Baholash	3 daqiqa
Mavzuni xulosalash	1 daqiqa
Uyga vazifa berish	1 daqiqa
Refleksiya	2 daqiqa

Dars ishlanma

Fanning nomi: “Informatika va axborot texnologiyalari”. 8-sinf, 8-dars.

Mavzuning nomi: “SMM asosida tadqiqot loyihalarini boshqarish. YouTube saytida kanal ochish.”.

Dars turi: aralash (Nazariy va amaliy).

Darsning maqsadi:

a) **Ta’limiy:** o’quvchilarda Youtube saytida kanal ochish, o’z tadqiqot loyihalarini harakatlantirish bo’yicha bilim va ko’nikmalarini hosil qilish.

b) **Tarbiyaviy:** o’quvchilarda jamoa yoki guruh bilan ishlashda o’zaro hurmat va javobgarlik xislatlarini tarbiyalash.

c) **Rivojlantiruvchi:** rivojlanib borayotgan raqamli texnologiyalar yo’nalishidagi yangi ma’lumotlar bilan boyitish.

Dars rejasi:

1. YouTube saytida shaxsiy kanal ochish.

2. YouTube saytida shaxsiy kanalni sozlash.

3. YouTube saytida kanalga video joylashtirish.

Rejalashtirilayotgan o’quv natijalari:

• YouTube saytida shaxsiy kanal ocha oladi;

• YouTube saytida shaxsiy kanalni kerakli holatda sozlay oladi;

• YouTube saytida kanalga tadqiqot loyihasiga doir videolarni joylashtira oladi.

O’qitish shakllari: sinfda, guruhda, yakka tartibda ishlash.

O’qitish metod va vositalari: munozara, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash, loyihalash metodi.

O’qitish vositalari: taqdimot, videodarslar, refleksiya kartochkalari (har bir o’quvchi uchun), darslik: 26–29-betlar.

AKT va interfaol vositalar: komputer, elektron doska, smart doska, proyektor, kolonkalar, LMS Google Classroom, YouTube.

Adabiyotlar va internet resurslari: Дамир Халилов: Манн, Иванов и Фербер. Маркетинг в социальных сетях. Москва; 2013; Darslik; dr.rtm.uz.

Monitoring va baholash: o’quvchilarni darsdagi faolligi hamda savol-javoblardagi ishtiroklariga, topshiriqlarni bajarishiga qarab 5 baholik tizimda.

Tashkiliy qism:

a) Salomlashish;

b) Davomatni tekshirish;

c) Darsga tayyorgarlikni tekshirish;


I. Takrorlash.

O’tgan mavzuni takrorlash uchun interaktiv texnologiya yaratildi. Pazzledan savolga mos keluvchilari tanlanadi. Quyidagi holat yuzaga keladi:

<https://learningapps.org/display?v=po6ob14xc23> (1-ilova)

1- rasm. Interaktiv viktorina bosh oynasi.


1. Ijtimoiy media tarmoqlariga qanday misollarni keltira olasiz?




2- rasm. Ijtimoiy media tarmoqlariga misollar tanlangandagi holat.

2. Ijtimoiy medialar orqali qanday tadqiqot loyihalar (mahsulot va xizmat turlar)ini yuritish mumkin?


3 - rasm. Ijtimoiy medialar orqali yuritiladigan tadqiqot loyihalari tanlangandagi holat.



3. Tadqiqot loyahasini amalga oshirish uchun maqsadli auditoriyani tanlashda



qanday ma'lumotlar kerak bo'ladi?



4- rasm. Tadqiqot loyihasini amalga oshirish uchun maqsadli auditoriyani tanlashda kerak bo'ladigan ma'lumotlar tanlangandagi holat.

Barcha savollarga to'g'ri javob topilganda yuqoridagi oyna chiqadi va **OK** tugmasi bosilganda viktorina oynamiz quyidagi ko'rinishga o'tadi, ya'ni barcha savollarga to'g'ri javob berilganda interaktiv viktorina oynasidagi rasm to'la ochiladi. (4-rasm)

5 - rasm. Interaktiv viktorina natijasi oynasi


II. Motivatsiya.

(2-ilova)



III. Mavzuni tushuntirish (Taqdimot va videorolik yordamida tushuntiriladi).

3-ilova.



6 - rasm. Dars taqdimoti

IV. Mavzuni mustahkamlash.

4-ilova


1) O'quvchilarni kichik guruhlarga bo'lish quyidagi usulda amalga oshiriladi: Sinfdagi o'quvchilar soniga ko'ra, 1dan 5 gacha quyidagicha raqamlangan rangli kartochkalar tarqatiladi:



Sinfda jami 15 nafar o'quvchi bo'lsa, 3 ta kichik guruhga ajratiladi. Har bir kichik guruhda 5 nafardan o'quvchi mavjud bo'ladi. Guruhlar ichida sardor saylanadi va har bir guruh amaliy topshiriqni bajaradilar. Guruhlar ishini har bir kichik guruh sardori umumlashtirib, namoyish qiladi.

V. Baholash.

Kichik guruhlar topshirig'i.



O'quvchilarning kichik guruhlarda bajargan taqdimotlari baholanadi. O'qituvchi darsdagi faolligi hamda savol-javoblardagi ishtiroklariga qarab o'quvchilarni baholaydi.

VI. Mavzuni xulosalash.



Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qilinadi. O'quvchilar xulosani tinglab, o'z fikrlarini aytadilar.

VII. Uyga vazifa berish.

5-ilova

VIII. Refleksiya.



Uy vazifasi – 29 bet, takrorlash uchun savollarga javob yozish.

Savol va topshiriqlar:

1. YouTube saytida kanal qanday ochiladi?
 2. YouTube saytida bir nechta kanal ochish mumkinmi?
 3. Videorolik tayyorlashda nimalarga ahamiyat berish kerak?
 4. Tadqiqot loyihasi doirasida tayyorlangan video qanday joylashtiriladi?
 5. YouTube saytidagi videolar bo'yicha mualliflik huquqlarini himoya qilish mumkinmi?
 6. Yuklangan videolarni ko'rish auditoriyasini chegaralash mumkinmi?
- Amaliy mashg'ulotda guruh bilan hamkorlikda bajarilgan ishlarni mustaqil ravishda bajarish (individual loyiha tayyorlash).
O'quvchilardan 26-betda berilgan QR-kod manzilidagi videoni ko'rib chiqish va o'z fikrlarini bay-on etish so'raladi.



mamnunman

etmadim

tug'dirdi

6-ilova

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Hozirgi vaqtda o'quv jarayonini zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalanmasdan tashkil etish mumkin emas. O'qitish va tarbiyalashning eng dolzarb vazifasi o'quvchilar bilimi va ko'nikmasini rivojlantirish hisoblanadi. Bu esa XXI asr avlodida quyidagi ko'nikma va fazilatlarni shakllantirish orqali namoyon bo'ladi: shaxsiy javobgarlik, boshqa nuqtai nazarlarga nisbatan bag'rikenglik, mulo-qot qobiliyatlari, o'zini rivojlantirish qobiliyati, fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ma'lumot topish, tahlil qilish,

boshqarish, ularni birlashtirish, baholash, turli shakl-larda, metodlar bilan yaratish, jamoada ishlash qobiliyati, muammolarni qo'yish va yechish qobiliyati. Ushbu muammoni hal qilish uchun AKTni boshqa zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan integratsiyalashgan holda o'quv jarayonida qo'llash maqsadga muvofiqdir, har qanday pedagogik texnologiya va metodlarning samaradorligi uni qo'llayotgan o'qituvchining ijodiy va kasbiy mahoratiga bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 140-sonli qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2020-yil 30-dekabrda 335-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi. Informatika va axborot texnologiyalari" o'quv dasturi.
5. "Informatika va axborot texnologiyalari". Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. M.R.Fayziyeva, D.M.Sayfurov. – Toshkent: Tasvir, 2020. – 112 b.
6. Informatika va axborot texnologiyalari. 8-sinf: O'qituvchilar uchun o'quv-metodik qo'llanma / M.R.Fayziyeva, D.M.Sayfurov. – Toshkent: Tasvir, 2020. – 112 b.
7. N.N.Azizxodjayeva, Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Moliya, 2003. – 192 b.
8. R.Ishmuhammedov, A.Abduqodirov, A.Pardayev, Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: "Iste'dod" jamg'armasi, 2008. – 180 b.
9. N.A.Muslimov, M.H.Usmonboyeva, D.M.Sayfurov, A.B.To'rayev, Innovatsion ta'lim texnologiyalari. T.: "Sano standart", 2015. – 150 b.
10. Дамир Халилов: Манн, Иванов и Фербер. Маркетинг в социальных сетях. Москва; 2013;
11. SMM для новичков / 1ps.ru — «Издательские решения», 2019, 44 с.
12. Простое и наглядное пособие по маркетинговым коммуникациям в социальных сетях. © Ingate, 2019, 48 с.
13. SMM без проблем. — Ingate, 2019. 16 с..